

O'QUVCHILARGA CHET TILLARINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY METODLAR

O'taboyeva Go'zal Gulmirzayevna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani № 59 sonli maktabning rus tili fan
o'qituvchisi otaboyevaguzal@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining til o'rganishda zamonaviy metodlar, turli xildagi texnologiyalardan foydalanish, rasmi tarqatma mateliallar, mavzularni mustahkamlashda interktiv oyinlar, lug'at yodlashda yangicha yondashuv, xotira kuchaytirish mashqlari, bir soatlik dars jarayonida mavzuni o'quvchiga to'liq yetkazib berish bo'yicha metodlar, uyga vazifa va topshiriqlarni berish haqida yoritib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются современные методы, использование различных технологий, раздаточных изображений, интерактивных игр для закрепления тем, новый подход к запоминанию словарного запаса, упражнения по укреплению памяти, изучение темы в течение часового урока. Студенту предоставляются полные методы подачи, домашние задания и задания.*

Abstract: *In this article, modern methods, the use of various technologies, picture handouts, interactive games to strengthen the topics, a new approach to vocabulary memorization, memory strengthening exercises, study the topic during a one-hour lesson are discussed in this article. The student is covered in complete delivery methods, homework and assignment assignments.*

Kalit so'zlar: *xotira mustahkamlash mashqlari, bloknot usuli, interaktiv oyin, mnemonika metodlari, proyektor, CD disklar, kassetalar.*

KIRISH

Hozirda talim sohasida yangi texnikalar qollash innavatsion pedagogika rivojlanishiga olib keldi. Innovatsiya – yangilik yaratish demakdir. Talimda yangilik yaratish, uni ommaga taqdim qilishda, ular buni qanday qabul qilishi muhim masala hisoblanadi. Jahon hamjamiyatida ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti kundan kunga rivojlanib, bizning yurtimizga ham yetib keldi. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan yoshlarni bilim olishini qo'llab quvvatlash uchun otkazayotgan islohatlari, yoshlarimizda bilim olishga bo'lgan mas'uliyatni yanada kuchaytirdi. Chet tillarini o'rganish, kelajak kasblarini egallashda bilimga ko'proq e'tibor qaratilyapti. Ta'lim sohalariga ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o'rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo'lmaydi. Boshlang'ich sinfni o'zidanoq chet tillarini o'rganish, yanada ko'proq axborot manbalaridan foydalanishga ajoyib imkoniyat taqdim etadi. Yurtimizda yashovchi aholining ko'p qismi bir necha tilda bimalol gaplasha oladi. Hozirda til o'rgatish o'quvchilarga boshlang'ich sinfdan boshlab, bosqichma- bosqich o'qitib kelinmoqda. Zamonaviy dunyo, zamonaviy axborot qurilmalari, bularni hammasi kerakli malumotlarni soniyalar ichida topishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda o'qishdan chalg'itishi, boshqa

turli vaqtni oluvchi mashg'ulotlarga olib keladi. Bu borada bir savol tug'iladi, hosh bu texnologiyalardan qanday samarali foydalanish mumkin?

Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqt-soati keldi." - deydi o'zlarining ma'ruzalarida hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. O'zbekistonning har bir yetishib kelayotgan yosh avlod hech kimdan kam bo'lmagan, dunyo ta'lim standartlari darajasiga to'liq javob bera oladigan yetuk bilimli-ilmli bo'lishi shart va bunga jon-jahdimiz bilan kirishishimiz kerak. Qayd etib o'tilgandek mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim To'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillariga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikasining jahon hamjamiyatiga yanada yo'naltirilgan tizim yaratildi. Chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikning oshishiga yordam bera oladi. Misol uchun mashg'ulot davomida chet tildagi video rolikni ko'rish orqali o'rganuvchining eshitish ko'nikmasi yetarli darajada rivojlanadi. Ba'zi bir hollarda esa videolar uchun berilgan izohlar ularning yozish, o'qish va hattoki gapirish ko'nikmalarini o'stirishida ham yetarlicha o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday hollarda biz kompyuter, magnitafon, proyektor, CD disklar va kassetalardan foydalanishimiz mumkin. Bundan tashqari dars davomida zamonaviy metodlar ham talaba-o'quvchilarning chet tilini o'rganishda ancha yengilliklar yaratadi. Shu o'rinda "klaster", "baliq skeleti", "venn diagrammasi", "rolli o'yinlar", "aqliy hujum", "savol-javob" kabi metodlarni aytib o'tishimiz lozim. Har bir metodning qo'llanilishida alohida talabao'quvchilar uchun chet tilini osonroq o'rganishda yengillik yaratib beruvchi omillari mavjud. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;
- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;
- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish;
- CD pleyerlardan foydalanish mumkin.

Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bugungi kunda innavatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning

darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Barcha texnika usullari organishga bo'lgan qiziqishni oshirishi bilan birga, uni oson va tez o'rganishga yordam beradi.

Til o'rganish ilovalari	Duolingo, Mondly, Memrise, Babbel, Rosetta Stone kabi til o'rganish ilovalaridan foydalaning. Ushbu ilovalar o'rganishni qiziqarli va qiziqarli qilish uchun interfaol darslar, viktorinalar va o'yin mashqlarini taqdim etadi.
Onlayn til kurslari	Coursera, FluentU, Preply, Udemy kabi nufuzli platformalar tomonidan taklif qilinadigan onlayn til kurslariga yoziling. Ushbu kurslar ko'pincha tinglash va nutq qobiliyatingizni oshirish uchun audio va video materiallar bilan tuzilgan darslarni taqdim etadi. Siz ushbu kurslarni tugatib xalqaro sertifikatga ham ega bo'lishingiz mumkin.
Onlayn suhbatlashi platformalari	HelloTalk yoki Tandem kabi til almashish platformalariga qo'shiling, bu yerda matnli xabarlar, ovozli qo'ng'iroqlar yoki video chatlar orqali dunyoning barcha nuqtalarida yashovchi til o'rganuvchilar bilan suhbat qurishingiz mumkin.

Bular hammasi til; o'rganishni osonlashtirish uchun ishlab chiqilgan dastur va saytlar bo'lib, muloqotni darsdan keyin ham sun'iy intellekt orqali davom ettirishi mumkin. Iloji boricha bo'sh vaqtlardan anchayin unumli foydalanishga yordam beradigan bunday dasturlar ko'plar tomonidan maqullanadi.

XULOSA

Ta'lim sohasida ahborot qurilmalari ta'lim sifatini oshirish, o'qish jarayonini yanada samarali qilish va yangi usullarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Ular o'qitishning interaktivlik, individualizatsiya va masofaviy o'qish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa talabalar va o'qituvchilarga o'zaro aloqalarni kuchaytirishga va ta'limda yanada samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Shu bilan birga, ahborot texnologiyalarining to'liq amalga oshirilishi va ularning o'qituvchilar va talabalarga to'g'ri qo'llanilishi ta'lim jarayonini yanada rivojlantiradi. Mavjud erkinliklar ancha murakkab bo'lgan jarayonlarni oson o'rganishga yordam beradi. Jumladan chet tilini o'rganish ko'p qirrali talimot bo'lib, murakkab psixologik jarayonlarni boshdan kechirishga olib keladi. Chet tilini ona tili bilan solishtirib o'rganishda bir qancha qarama-qarshiliklar o'quvchilarga o'rganish jarayonida qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Mavzularni takrorlash, mashqlar bilan mustahkamlash bu kabi muammolarni kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining №1875 – qarori.
2. J. Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi", Toshkent-2012
3. O'. Hoshimov, I. Yoqubov "Ingliz tili oqitish metodikasi" (oquv qollanma) Toshkent "Sharq" nashriyoti 2003
4. CHET TIL O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY METODLAR Zayniddin Sanaqulov Baxromjon Jo'raboyev